

## KONSTITUTSIYAVIY VATANPARVARLIK HAQIDA TUSHUNCHA

**Mustaev Ruslan Damirovich**

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchilari*

**Xasanov Nurmuhammad**

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti magistri*

**Ubaydullayev Saidakbar Saydaliyevich**

*Harbiy ta'lim fakulteti, Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda**

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti talabasi*

**Anotatsiya:** *Bugun yurtimiz bo'ylab ulkan tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy ahamiyatga molik konstitutsiyaviy islohotlar jarayonining bevosita shohidi bo'lib turibmiz. E'tirof etish kerak, mazkur pallada xalqimizdagi konstitutsiyaviy vatanparvarlikning yorqin ifodasi namoyon bo'lmoqda.*

**Kalit so'z:** *Vatanga sadoqat, tarixiy, xizmat qilish, konstitutsiyaviy, mamlakatimiz, qadriyatlar.*

## О КОНСТИТУЦИОННОМ ПАТРИОТИЗМЕ ПОНЯТИЕ

**Мустаев Руслан Дамирович**

*Преподаватели факультета военного образования Ферганского государственного университета*

**Хасанов Нурмухаммад**

*Магистр факультета военного образования Ферганского государственного университета*

**Убайдуллаев Саидакбар Сайдалиевич**

*Студент факультета военного образования Ферганского государственного университета*

**Алиазаров Нодирхон Носирхонзода**

*Студент факультета военного образования Ферганского государственного университета*

**Аннотация:** *сегодня мы являемся непосредственными свидетелями процесса конституционных реформ, имеющих огромное историческое, социальное, политическое, правовое значение для всей нашей страны. Надо признать, что в этот период ярко проявляется конституционный патриотизм нашего народа.*

**Ключевое слово:** *верность Родине, историческая, служение, конституционная, наша страна, ценности.*

## **ABOUT CONSTITUTIONAL PATRIOTISM THE CONCEPT**

**Mustaev Ruslan Damirovich**

*Teachers of the Faculty of Military Education of Ferghana State University*

**Hasanov Nurmukhammad**

*Master of the Faculty of Military Education of Ferghana State University*

**Ubaidullaev Saidakbar Saidaliev**

*Student of the Faculty of military education of Fergana State University*

**Alinazarov Nodirkhon Nosirhonzoda**

*Student of the Faculty of military education of Fergana State University*

**Abstract:** *Today we are direct witnesses of the process of constitutional reforms that have enormous historical, social, political, and legal significance for our entire country. It must be admitted that during this period the constitutional patriotism of our people is clearly manifested.*

**Key word:** *loyalty to the Motherland, historical, service, constitutional, our country, values.*

Vatanparvarlik – vatanga muhabbat va sadoqat, vatan uchun xizmat qilish va bu yo‘lda butun umrini va salohiyatini baxshida etish, kerak bo‘lsa, o‘z jonini ham fido qilish demakdir. Vatanparvarlik barcha insonlar, millatlar, xalqlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik insonlarning o‘z vatani taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hudud daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida

takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va buguni bilan faxrlanishda, kelajagi uchun qayg‘urish va daxldorlikda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi.

Konstitutsiyaviy vatanparvarlik esa vatanparvarlikning o‘ziga xos turidir. Bu ibora ilk bor XX asrning 40 yillari oxirida Germaniyada qo‘llanilgan. Nemis siyosatshunos faylasufi va siyosiy g‘oyalar tarixchisi Ya.V.Myuller hozirgi vaqtda konstitutsiyaviy vatanparvarlikning yagona falsafiy huquqiy ta‘rifi yo‘qligini, tom ma’noda u fuqarolar ishonchi va davlat hokimiyati manbai bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Zotan, «konstitutsiyaviy vatanparvarlik» iborasi mazmun-mohiyatiga ko‘ra, demokratik Konstitutsiyaning normalari, qadriyatlari va tartib-qoidalariga asoslanishi kerak. Siyosatshunos D.Shternberger fikriga ko‘ra, davlat qachonki o‘z fuqarolarining Konstitutsiyada kafolatlangan erkinliklarini hamda mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etishga doir huquqlarini hurmat qilsa va amalda ta‘minlasagina muayyan odamlar jamoasi sifatida tirikdir. Nafaqat umumiy tarixiy o‘tmish tufayli, balki shu holatda ham o‘ziga xoslik hissi rivojlanib boradi. Yevropa an‘analariga ko‘ra, vatanparvarlik har doim davlat tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu tariqa olim XX asrning 70 yillarida jamoatchilik e’tiborini ushbu atamaga jalb qilish bilan Germaniya Federativ Respublikasida Asosiy qonunning yuksalib borayotgan ahamiyatini aks ettirgan.

bugungi kunda Germaniyada Asosiy qonun juda ommalashgan. Mulohazamizni 2019 yilda Infratest dimap jamoatchilik fikrini o‘rganish instituti o‘tkazgan so‘rov natijalari ham tasdiqlaydi. Jumladan, respondentlarning 88 foizi Asosiy qonunni yaxshi (58 foizi) yoki juda yaxshi (30 foizi) deb qayd etgan. Bu fikrga aholining deyarli barcha qatlamlari qo‘shilgan. Aksariyat kishilar uchun Asosiy qonun, eng avvalo, inson qadr-qimmatini, uning huquqlarini himoya qilish, so‘ngra tenglik va teng huquqlilik, umumiy faoliyat erkinligi, matbuot va so‘z erkinligi demakdir.

Shunday qilib, konstitutsiyaviy vatanparvarlik Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan inson huquqlariga va erkinliklariga, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi hamda muayyan davlatdagi insonlarni jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, birlashtiradigan falsafiy-huquqiy tushunchadir.

E’tirof etish o‘rinliki, Yangi O‘zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy maqsadi ham har bir insonning sha’ni, qadr-qimmatini, farovonligi va manfaatlarini to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladigan, insonparvar, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni

barpo etish hamda mustahkamlash, ochiq, adolatli va barkamol fuqarolik jamiyatini shakllantirish, mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta'minlash, demokratiya g'oyalari, ijtimoiy adolat, erkinlik va tenglik kabi oliy qadriyatlarga o'z sodiqligini ifoda etishdan iboratdir.

Shuning uchun ham konstitutsiyaviy vatanparvarlik xalqimizning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'lgan cheksiz hurmati, e'tiqodi va sadoqati konstitutsiyaviy islohotlar jarayonining quyidagi bosqichlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o'rnak bo'lib xizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning barcha harbiy akademik litseylariga **“Temurbeklar maktabi”** nomi berildi.

Vatanparvarlik haqida so'zlar ekanmiz, mustaqillik bizga in'om etgan vatanparvarlikning oliy ramzlari haqida so'zlamasdan iloj yo'q. Vatanparvarlikning oliy ramzlari xalqimiz, yoshlarimiz qalbidan mustahkam o'rin olayotganligi nihoyatda quvonchlidir. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayroqi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohi oldida 180 tadan ortiq mustaqil davlatlar bayroqlari qatorida maqrur hilpirab turishini ko'rish va his etish naqadar katta baxt, insonni naqadar kuchli bir hissiyotga chulqab oladi... Prezidentimiz Islom Karimov juda to'qri ta'kidlab o'tganidek: «O'zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari – Davlat Gerbi, Davlat Bayroqi, Davlat Madhiyasi azizdir. Ular ona vatan - O'zbekiston Respublikasiga iftixor va cheksiz hurmat to'yqusini tarbiyalaydi».

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy markaziy veb sayti

2. Курбонова З. Ч., Бабаджанова Ш. А. TIBBIYOTDA ANGI KUN //TIBBIYOTDA ANGI KUN Учредители: Бухарский государственный медицинский институт, ООО" Новый день в медицине. – Т. 1. – С. 217-224.

3. Курбонова, З. Ч., and Ш. А. Бабаджанова. "TIBBIYOTDA ANGI KUN." TIBBIYOTDA ANGI KUN Учредители: Бухарский государственный медицинский институт, ООО" Новый день в медицине 1: 217-224.

4. Курбонова, З. Ч., & Бабаджанова, Ш. А. TIBBIYOTDA ANGI KUN. TIBBIYOTDA ANGI KUN Учредители: Бухарский государственный медицинский институт, ООО" Новый день в медицине, 1, 217-224.

5. Курбанова З. Ш. ЗАМОНАВИЙ ГИНЕКОЛОГИЯДА ТУХУМДОН ПОЛИКИСТОЗ СИНДРОМИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 9. – С. 27-35.